



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
INTEGRATSIYALASHGAN MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA
BOLALARNING KOMMUNIKATIV NUTQLARINI RIVOJLANTIRISH**

Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi.

Namangan viloyati pedagogic mahorat markazi maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqola respublikamizdagi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar, integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ sifatlarini rivojlanishda olib borilayotgan ishlar to'grisidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ta'lim, integratsiya, bolalar, mashg'ulot, innovatsiya, kommunikativ, rivojlantirish.

Аннотация:

В данной статье описывается работа, проводимая по развитию системы дошкольного образования в нашей республике, работа, проводимая по развитию коммуникативных речь детей в процессе интегрированного обучения.

Ключевые слова; дошкольное учреждение, образование, инновация, интеграция, дети, коммуникация, развития.

Annotation:

This article describes the work carried out to develop the system of preschool education in our republic, the work carried out to develop the communicative qualities of children in the process of integrated learning

Keywords: preschool, education, integration, children, communication, development.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th May 2025

Maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha bugungi kunda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora – tadbirlari to'g'risida" maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish bolalarning qamrab olish, maktabga tayorlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yunalishi hisoblanadi. Manan etuk shaxslarni tarbiyalashda eng, avvalo tashkiliy qulay shart-sharoitlarni yaratish. Innovatsiyon texnologiyalar bilan ta'minlash chora-tadbirlari olib borilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari oldiga quyilgan maqsad va vazifalari, maktab yoshidagi bolalarning savodini chiqarish, tarbiyalanuvchilarda Vatanga bo'lgan muxabbatni shakllantirish, u bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otish. Bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida markazda faoliyat olib boradi:

*Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;

*Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi;

*Til va nutq markazi;

*Fan va tabiat markazi;

*San'at

markazi.

Markazlardagi faoliyatlar davomida eng, katta ma'suliyat pedagog kadrlarga yuklatilsa, yosh bolali onalarga esa mexnat qilish imkoniyat yaratib beradi. Tobora rivojlanayotgan mamlakatimizda taraqqiyot qonunlari ichida intensivlashtirish, globallashtirish hamda integratsiyalashgan mashg'ulotlar jaroyonida bolalarning kommunikativ sifatlarini rivojlantirishda unga mos mazmun va metodika tanlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga zamonaviy tendentsiyalar bilan bir qatorda tarixiy



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

ta'limiy va milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqib integrativ yondashish bugungi kunning ijtimoiy talabi hisoblanadi. Integratsiyaning asosiy kategoriyalari umumiy aloqa, uzaro ta'sir, yaxlitlik, tizimlilikdan tashkil topadi. Integratsiyalashgan kommunikativ sifatlar bolalar ongini rivojlantirishda o'z orniga ega.

Akademik I.P.Pavlov ta'kidlaganidek ta'lim va tarbiya jarayononi insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turli aloqa, fikr, taffakur va bilimlardan iborat. Uning fikricha fanlar o'rtasidagi o'zaro uzviylik obyektiv int'iqosidir*.

Ta'lim jarayonida o'zaro bog'liklik mantiqiy tizimlar orqali tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'z bilim, ko'nikma va malakalarini deduktsiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalaydilar.

Integratsiya-bu faoliyatlarning diferentsiyal jarayon davomida yaqinlashuvi va bogliqligidir

Integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ sifatlarini rivojlantirish uchun aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib ko'rinishda namoyon etadi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Masalan, Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoki axloq" asari. Avloniy ushbu asarida integratsiyon yondashgan. Ya'ni inson ishida ham so'zida ham to'g'riso'zlikka amal qilishi lozimligi xususida to'xtalib o'tadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida va "Boshlang'ich ta'lim" konsepsiyasida ta'kidlanganidek, "O'quvchini mustaqil fikrlashga, faollikka o'rgatuvchi ta'lim usullarini qo'llab, ularning nutqini o'zlashtirish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Bu vazifani uddalash uchun nafaqat ona tili, balki barcha fanlarda ham yuqori ko'rsatgichga erishish maqsadga muvofiq bo'ladi".¹

Ma'lumki, fikrlash nutqdan ajralmas jarayon. Bolalar nutqining rivojlanishi ham fikrlash jarayoniga bog'liqdir. Fikr yuritish esa murakkab faoliyat bo'lib,

¹Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 1998- yil, 6-son, 18-bet.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

maxsus aqliy faoliyat asosida amalga oshadi. Taqqoslash, tahlil qilish va sintez abstraklashtirish, umumlashtirish aqliy jarayonning asosiy turlaridir.

Fikrlar nutq orqali ifoda etiladi va bayon qilinadi. “Fikrlar so‘z qolipiga solinadigan voqelikka aylanadi”². Nutq – ta‘lim jarayonida alohida o‘rin tutadi. Bolalar nutqini o‘stirish ta‘lim tarbiya ishidagi muhim shartlaridan biridir.

Ma‘lumki, ta‘lim nutq orqali muloqotga kirishish yo‘li bilan olib boriladi. “Bolalar ustozlari nutqini tinglab va kitob mazmunini uqib olish bilan bilimlarini o‘zlashtiradilar”. Ta‘lim jarayonining muvaffaqiyati bir tomondan bolalar idrok qilgan nutqlarning sifatiga bog‘liq bo‘lsa, shu tilidan o‘quvchilarning erkin foydalana olishlariga bog‘liqdir. Nutq ravonligi darajasi va sifati – grammatik jihatdan to‘g‘riligi va boshqa kishilarga tushunarli bo‘lishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ta‘lim jarayonida bolalarga o‘zlari idrok qiladigan va ishlatadigan har bir so‘zning ma‘nosi tushunarli bo‘lishi uchun harakat qilishi kerak.

Nutq o‘stirish nima? Agar bolalarning bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tamonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) aktiv amaliy o‘zgartirish tushuniladi. Agar tarbiyachi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, bolalar tilining talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va priyomlarni qo‘llash tushiniladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, bolalar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartlarga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak Bolalar nutqini o‘stirishning metodik talabi, bola o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, bolalar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida, bola nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.

²Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.- T.: O‘qituvchi, 1985.- B.176.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th May 2025

3. Fikr tinglovchi tushunadigan soʻz, soʻz birikmasi, gap, nutq iboralari yordamida ifodalansagina tushunarli boʻladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan oʻz tajribasida foydalanish natijasida bolalarga taʼlim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish” shakllanadi.

Nutq oʻstirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng sisrejasini yaratish, yaʼni, birinchidan yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, oʻrgangan til vositalaridan foydalanib, oʻz fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida oʻzlashtiradi. Buning oʻzi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaga keltiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini oʻzlashtirish. Maktab bolalarni adabiy tilni sodda oʻzlashuv tildan, dialekt va jarayondan farqlashga oʻrgatadi, adabiy tilning badiiy ilmiy soʻzlashuv variantlari bilan tanishadilar.

2. Jamiyatimizning har bir aʼzosi uchun zarur boʻlgan muhim nutq malakalarini, yaʼni oʻqish va yozish malakalarini oʻzlashtirish. Bu bilan bola yozma nutqining xususiyatlarini, uning ogʻzaki – soʻzlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. Bolalar nutq madaniyatini takomillashtirish. “Til kishilik jamiyatida muhim aloqa vositasidir”. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolaarning nutq madaniyatiga alohida ahamiyat beriladi.”³

Bu vazifalarni bajarish uchun tarbiyachi bolalar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa bolalar nutqini oʻstirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Bolalarning fikrlarini idrok qilishlari ham, esda olib qolishlari ham, qayta tiklashlari ham faqat nutq yordamida amalga oshiriladi.

Nutqni, odatda eshitilish, oʻqib chiqish bilangina uning lugʻaviy shakllarini va uslubini esda mukammal qoldirib boʻlmaydi, nutqda ifodalangan fikrlar ham

³Qosimova K. Boshlangʻichsinflarda ona tili oʻqitish metodikasi.- T.: Oʻqituvchi, 1985.- B. 180.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th May 2025

mustahkam o'zlashtirilmay qolishi mumkin. Masalan, agar bola uy vazifasini tayyorlayotganda mashg'ulotini bir-ikki marta takrorlab olish bilangina chegaralansa, mashg'ulot vaqtida erkin javob bera olmaydi, qiynaladi, "qanday gapirishni" bilmaydi. U o'zining noaniq fikrlarini grammatik shakllarda ifodalashga urinadi. Bu og'zaki javoblar mujmal bo'lib, gap silliq chiqmaydi va bilim sifatini pasaytiradi. O'quvchi, qanday gapirish kerakligini bilmaganligidan o'z fikrlarini ifodalash uchun kerakli so'z va ifodalarni topolmay qoladi. Bunday vaqtlarda odatda: "men o'qiganman, bilaman ammo qanday gapirishni bilolmayman, ayta olmayapman" deb arz qila boshlaydi. Tarbiyachi ko'pincha kerakli so'zlarni tanlay olmaydi, o'z nutqini grammatik jihatdan noto'g'ri tuzadi. Bolalar topshiriqni tayyorlayotganda uni og'izda ifodalash ustida mashq qilmasa shunday hol sodir bo'ladi. Tarbiyachi o'z mahoratini dasturda berilgan faoliyatlarda integratsiyalash imkoniyatlarini to'g'ri aniqlagan holda faoliyat olib borsa ijobiy natijaga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent, 2006.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998.
- 3.*Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax, 2007.
- 4.Zunnunov A. Sulaymonov A., Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash omillari. –T..2004.